O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 26-12-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

270439 - SONLI

Obyekt nomi: " Mavjud binolarni buzib o’rniga 12 qavatli, 1-2 qavatlari savdo va maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalari yuqori qavatlari turar-joy " bino va inshootlari qurilishi	
Buyurtmachi:	AMURETTO MCHJ
Bosh loyihachi:	"RICHMIR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	103769

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekistan Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 07.11.2025 yildagi 1703-1703401-213860-sonli “Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i”.

1.2. O‘zbekistan Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Obyektni ixtisosini o‘zgartirish va rekonstruksiya qilishga 31.01.2025 yildagi 171397173-sonli ruxsatnoma.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Andijon viloyati Qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 20.11.2025 yildagi 230093519-sonli xulosasi.

1.4. Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti bilan 2025-yilda kelishilgan hamda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.5. «O‘ZGAShLITI» MChJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

1.6. Buyurtmachining loyiha tashkiloti bilan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 10.12.2025-yildagi №6x/25AShX-sonli shartnomasi.

1.7. «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ Andijon hududiy filiali elektr tarmoqlariga ulanish uchun 25.11.2025 yildagi №03401133759 -sonli va 23.12.2025 yildagi №03401144407 -sonli texnik shartlar.

1.8. “Andijon suv ta’minoti” AJ tomonidan 29.11.2025 yilda berilgan №208-sonli texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra ishchi loyihaning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.
2.2. “RICHMIR” MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan obyektning issiqlik-texnik hisoboti.
2.3. “RICHMIR” MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan obyektning energetik passporti.
2.4. “RICHMIR” MChJ tomonidan Binoning konstruktiv hisobi bo‘yicha 2025 yildagi texnik xulosasi.
2.5. Buyurtmachining 20.12.2025 yildagi №13/25 sonli xati.
2.6. Buyurtmachining 24.12.2025 yildagi №12 sonli xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Normativ shamol bosimi – Wo = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni – Sn = 0,50 kPa.

Loyihaning xisobiy zilzilabardoshligi – 8 ball.

Tuproqning cho’kuvchanlik toifasi – II (ikkinchi).

Tuproqning seysmik xossasi - II (ikkinchi).

Yerning muzlash chuqurligi – 0,68 m.

3.2. Bosh reja va Arxitektura rejalashtirish yechimlari.

“Andijon shahar, Islomobod MFY, Baxouddin Naqshbandiy ko’chasi, 101-manzil hududida. joylashgan.

Bino va inshootlar tasnifi:

- “Ko’p qavatlik turar joy binosi A-blok”.
- “Ko’p qavatlik turar joy binosi B-blok”.
- “Ko’p qavatlik turar joy binosi D-blok”.
- Dam olish ayvoni;
- Yong’inga qarshi jihozlar qutisi;
- Elektromobillar avtoturargohi;
- Avtomobil turargohlari;
- Chiqindi to’plash qutilari;
- Bolalar maydoni;
- Kichik elektr shaxobchasi;
- Shlagbaum;
- 100m3 yong’inga qarshi suv havzasi;
- MAFlar:

-Qumxona;

- Sirpang’ich;
- Arg’umchoq;
- O’rindiq;
- Yer osti suv olgich “Gidrant”.

Bosh rejaning texnik – iqtisodiy ko’rsatkichi:

Umumiy maydon - 4300,0 m2;
Qurilish maydon - 1777,0 m2;
Ko’kalamzorlashtirish maydon – 803,0 m2;
Yo’l va yo’laklar maydoni - 755,0 m2;
Avtoturargohlar maydoni -715,0m2;
Bolalar maydoni -250,0m2;

3.3. ***Arxitektura – qurilish qismi.***

(A-blok)” – to’rtburchak shakldagi 12-qavatli, 1-seksiyali bino.Yerto’la tarx o’q o’lchamlari 37,930x17,800 metrni va 1-12-qavatlar tarx o’q o’lchamlari 37,930x16,200 metrni tashkil etadi. Umumiy xonadonlar soni 88 ta. 1 xonali 11 ta, 2 xonali 66 ta va 3 xonali 11 ta xonadonlar loyihalangan. 9 ta quyosh suv kollektorlari va 40 ta quyosh panellari loyihalangan.

Yerto’la avtoturargoh sig’imi 16 ta; Yerto’la qavatda zinaxona, yo’lak, liftxonalar, texnik xona va avtoturargoh loyihalangan. Birinchi qavatda zinaxona, yo’lak, liftxonalar, do’kon, texnik xonalar loyihalangan. 2-3-qavatlarda zal, zinaxona, yo’lak, liftxonalar, balkon, zal, oshxona, yotoqxona, garderob, hojatxona, bolalar xonasi va boshqalar. Takroriy qavatda zinaxona, yo’lak, liftxonalar, balkon, yotoqxona, garderob, hojatxonalar, balkon va boshqalar. Texnik qavatda zinaxona, yo’lak, liftxona va balkon loyihalangan. Yerto’la xona balandligi poldan polgacha h=4,2 metr. 1-qavat xona balandligi poldan polgacha h=4,2 metr. Takroriy qavatlar balandligi poldan polgacha h=3,3 metr.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichi:

(A-blok): Umumiy maydon - 6820,16 m2;

Qurilish maydon - 547,39m 2;

Qurilish hajmi - 22137,60m3;

Yashash maydoni - 4801,95m2;

(B-Blok)” – to’rtburchak shakldagi 12-qavatli bino.Yerto’la tarx o’q o’lchamlari 37,600x17,800 metrni va 1-12-qavatlar tarx o’q o’lchamlari 36,000x16,200 metrni tashkil etadi. Umumiy xonadonlar soni 99 ta. 2 xonali 77 ta va 3 xonali 22 ta xonadonlar loyihalangan. 10 ta quyosh suv kollektorlari va 40 ta quyosh panellari loyihalangan. Yerto’la avtoturargoh sig’imi 17 ta; Yerto’la qavatda zinaxona, yo’lak, liftxonalar, avtoturargoh, texnik xonalar loyihalangan. 1-qavatda zinaxona, yo’lak, liftxonalar, do’kon, texnik xonalar loyihalangan. 2-3-qavatlar zal, yo’lak, zinaxona, liftxonalar, balkon, oshxona, yotoqxona, omborxona, hojatxona, dush va boshqalar loyihalangan. 4-5-6-qavatlar xonalarda zal, yo’lak, zinaxona, liftxonalar, balkon, oshxona, yoqtoqxona, omborxona, dushxona, hojatxona va boshqalar loyihalangan. 7-12-qavatlar xonalarda zal, yo’lak, zinaxona, balkon, oshxona, omborxona, dushxona, hojatxona, yotoqxona va boshqalar loyihalangan. Texnik qavatda yo’lak, zinaxona, liftxona va balkon loyihalangan. Yerto’la xona balandligi poldan polgacha h=4,2 metr. 1-qavat xona balandligi poldan polgacha h=4,2 metr. Takroriy qavatlar balandligi poldan polgacha h=3,3 metr.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichi:

Umumiy foydali maydon -7601,53 m2;

Qurilish maydon - 697,23 m2;

Qurilish hajmi - 27776,70 m3;

Yashash maydoni - 5395,22 m2;

(D-Blok)” – to’rtburchak shakldagi 12-qavatli bino.Yerto’la tarx o’q o’lchamlari 27,600x17,800 metrni va 1-12-qavatlar tarx o’q o’lchamlari 27,600x16,200 metrni tashkil etadi. Umumiy xonadonlar soni 77 ta. 2 xonali 55 ta va 3 xonali 22 ta xonadonlar loyihalangan. 8 ta quyosh suv kollektorlari va 40 ta quyosh panellari loyihalangan. Yerto’la avtoturargoh sig’imi 14 ta; Yerto’la qavatda zinaxona, yo’lak, liftxonalar, avtoturargoh, texnik xonalar loyihalangan. 1-qavatda zinaxona, yo’lak, liftxonalar, do’kon, texnik xonalar loyihalangan. 2-3-qavatlar zal, yo’lak, zinaxona, liftxonalar, balkon, oshxona, yotoqxona, omborxona, hojatxona, dush va boshqalar loyihalangan. 4-5-6-qavatlar xonalarda zal, yo’lak, zinaxona, liftxonalar, balkon, oshxona, yoqtoqxona, omborxona, dushxona, hojatxona va boshqalar loyihalangan. 7-12-qavatlar xonalarda zal, yo’lak, zinaxona, balkon, oshxona, omborxona, dushxona, hojatxona, yotoqxona va boshqalar loyihalangan. Texnik qavatda yo’lak, zinaxona, liftxona va balkon loyihalangan. Yerto’la xona balandligi poldan polgacha h=4,2 metr. 1-qavat xona balandligi poldan polgacha h=4,2 metr. Takroriy qavatlar balandligi poldan polgacha h=3,3 metr.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichi:

Umumiy foydali maydon - 6125,23 m2;

Qurilish maydon - 514,23 m2;

Qurilish hajmi - 21300,0 m3;

Yashash maydoni - 4406,16 m2;

Arxitektura yechimlari:

Yer osti devor – temir beton devorlar;

Devor – 250 mm qalinlikdagi gazoblok;
Pardevor – 120 mm va 200 mm qalinlikdagi gazoblok;
Ustun – monolit temir beton;
Orayopma – 240mm qalinlikdagi yig'ma temir beton plita;
Tom (1) – nishabli tom, metal ferma; Tom (2) – tekis tom, monolit temir beton; ***Izolyatsiya qatlamlar:***
Devor izolyatsiya – 50 mm qalinlikdagi issiqlik saqlagich;
Pol izolyatsiya – 50 mm qalinlikdagi penopolistirol;
Poypesh izolyatsiya – 100 mm qalinlikdagi bazalt to'shama;
Tom izolyatsiya (1va2) – 150 mm qalinlikdagi mineral issiqlik saqlovchi;
Tashqi pardozlash:
Poypesh – granit plitka qoplama;
Fasad – dekorativ panel;
Tashqi devor – milliy naqsh plitka va dekorativ panel;
Tom (1) – profnastil;
Tom (2) – qoplama rulonli gidroizolyatsiyalangan;
Ichki pardozlash:
Devor – yuqori sifatli suv emulsiya (yer to'la va 1-qavat, texnik qavat);
Shift – yuqori sifatli suv emulsiya (yer to'la va 1-qavat, texnik qavat);
Devor xonadonlar – suvoq;
Eshik – metal va plastik profil;
Vitraj – alyumin profil;
Pol – beton qoplama, keramogranit va boshqalar.
"Besedka" – poydevor rejasi gabarit o'lchamlari 4,0x4,0 metrni tashkil etadi. Balandlik pol sathidan yuqori metal konstruksiyagacha balandlik h=2,5 metrni tashkil etadi.
Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi:
Umumiy maydon -12,0 m2;
Qurilish maydon -12,0 m2;
Qurilish hajmi -36,0 m3;
Arxitektura yechimlari:
Poydevor – temir beton monolit;
Tom qoplama – leksan;
Tom – metal konstruksiya va nishabli tom;
Konstruksiya – metal;
Ishchi loyihada gabarit o'lchamlari 6,0x6,0 metrni tashkil etgan yer ostida loyihalangan 100 m3li monolit temir beton rezervuar, bolalar maydoni, yer osti yong'in gidranti, shlagbaum, KTP komplektatsiya, 4,4x2,0 metr o'qda loyihalangan axlat uchun maydon va boshqalar loyihalangan. Shuningdek, loyiha yechimlarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqsiz harakatlanishi uchun chora tadbirlar ishlab chiqilgan
3.4. Konstruktiv yechimlari.
Loyixalanayotgan binolar 12 (o'n ikki) qavatli yetti blokdan iborat. Binoning konstruktiv sxemasi QMQ 2.01.03-19, 3.1-jadvalning p.1.2.2, b) etib belgilangan.
Blok A - to'g'rito'rtburchak shaklda bo'lib, o'n ikki qavatli yer-to'la qismiga ega. Bino o'lchamlari yerto'la tarx o'q o'lchamlari 37,930x17,800 metrni va 1-12-qavatlar tarx o'q o'lchamlari 37,930x16,200 va tashkil etadi.
Blok B - to'g'rito'rtburchak shaklda bo'lib, o'n ikki qavatli yer-to'la qismiga ega. Bino o'lchamlari yerto'la tarx o'q o'lchamlari 37,600x17,800 metrni va 1-12-qavatlar tarx o'q o'lchamlari 36,000x16,200 va tashkil etadi.
Blok D - to'g'rito'rtburchak shaklda bo'lib, o'n ikki qavatli yer-to'la qismiga ega. Bino o'lchamlari yerto'la tarx o'q o'lchamlari 27,600x17,800 metrni va 1-12-qavatlar tarx o'q o'lchamlari 27,600x16,200 va tashkil etadi.

Bloklar.

Poydevori – quyma, temirbetonli, yaxlit plitasimon, qalinligi 1200 mm bo‘lib, beton sinfi V25ni tashkil etadi.

Yer-to‘la devorlari - quyma, temirbetonli, qalinligi 500 mm bo‘lib, beton sinfi V25ni tashkil etadi.

Ustnulari - quyma, temirbetonli, o‘lchamlari uchinchi qavatgachan 500x500mm va qolgan q avatlar uchun 400x400mm etib belgilangan. Beton sinfi V25ni tashkil etadi. To‘sinlari(rigeli) – quyma, temirbetonli, o‘lchamlari 500x500 va 400x400mm bo‘lib, beton sinfi V25ni tashkil etadi.

Devorlari – quyma, temirbetonli, qalinligi 500, 400, 300, 250 va 200 mmli bo‘lib, beton sinfi V25ni tashkil etadi. Orayopmalar – quyma, temirbetonli, qalinligi 180 mm bo‘lib, beton sinfi V25. Diafragmalar - quyma, temirbetonli bo‘lib, beton sinfi V25ni tashkil etadi.

Devorlar (tashqi) – devor qalinligi 250mm bo‘lib, gazobloklardan iborat.

Pardevorlar – qalinligi 200 va 120mm bo‘lib, gazobloklardan iborat.

Zinapoyalar – quyma, temirbetonli bo‘lib, beton sinfi V25ni tashkil etadi

3.5. Yong‘in xavfsizligi.

Binoning yong’inga chidamlilik darajasi – II.

Funktsional yong'in xavfliligi bo'yicha klassi – F1.3.

Konstruktiv yong'in xavflilik klassi – C0.

3.6. Energiya samaradorligi.

SHNK 1.03.01 p5. talablariga muvofiq binoning energiya pasportini o'z ichiga olgan "energiya samaradorligi" yechimi, 10.5-bandning 2.03.10-2019-bandiga va tashqi issiqlik izolyatsiyaning muvofiq ishlab chiqilgan.

- SHNK 1.03.01 va 2.03.10-2019 muvofiq ilova 10.5 talablariga muvofiq binoning energiya pasporti taqdim qilingan.
- QMQ 2.01.04 2018 Issiqlik muhandislik hisobi himoya darajasi ishlab chiqilgan.
- Xonadonlarning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy LED chiroqlari o‘rnatilishi nazarda tutilgan. Loyihaga ko’ra binolar tom qismida 60 kVt lik 120 dona quyosh panellari o’rnatilishi rejalashtirilgan.

3.7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

- Bino tashqi muhandislik tizimlari tashqari, barcha ichki muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish tizimi, shamollatish, ichki elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik, yong‘in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART va loyihalashtirish topshirig‘iga muvofiq).
- Ob’ektni tashqi muhandislik tarmoqlari ekspertiza tomonidan ko‘rilmadi, kelajakda tashqi muhandislik tarmoqlari ishlab chiqilishi va o‘rnatilgan tartibda ekspertizadan o‘tkazilishi lozim.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Dastlabki loyiha yechimlari loyihachi bilan kelishilgan hamda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Andijon viloyati Qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 20.11.2025 yildagi №230093519 -sonli xulosasi.

5.3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o‘zgarishi

vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Andijon viloyati filialining 17.10.2025 yil dagi №01-02/03-6940 sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **81 158 532 728** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

309 243 012 so'mga kamaytirilib, **80 849 289 716** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **68 788 899 327** so'm

Asbob-uskunalar: **3 397 966 490** so'm

QQS: **8 662 423 898** so'm

Ob’ekt qiymati kamayishi quyidagi aniqlashtirish natijasida yuzaga kelgan, jumladan: ish xajmlarini ko‘rib chiqish, resurs va normalarni aniqlashtirish, pudratchining boshqa xarajatlari, qurilish materiallari, mashina mexanizimlar va boshqa xarajatlar.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik tarmoqlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo‘yicha izohlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- binoning konstruktiv qismi bo‘yicha barcha kamchiliklar aniqlashtirildi va bartaraf etildi;
- isitish, shamollatish va suv ta’minoti bo‘yicha keltirilgan kamchiliklar bartaraf etildi.

6.3. Shartnoma bo‘yicha import materiallar va asbob-uskunalarni sotib olish (oborudovanie), hamda etkazib berish xarajatlari va u bilan bog‘liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o‘tkazilmaydi.

6.4. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Sh aharsozlik hujjatlari ekspertiza qilish Respublika markazi” DM majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi.

6.5. Buyurtmachiga qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi:

- ShNK 4.01.16-09 6-bobidagi “Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” asosida asbob-uskunalar va qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlaridan olinishi, pudratchining boshqa xarajatlari va ishchilarning ish xaqi bo‘yicha aniqlik kiritishlishini.

6.6. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqatda (po faktu) bajarilgan ishlar va nazorat o‘lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.7. Buyurtmachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli tashkilotlar bilan kelishishi lozim.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining III bob 29-bandida ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgarligi belgilangan.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, barcha me’yor talablarning bajarilishi va buyurtmachi tomonidan ob’ektning asbob-uskunalar va qurilish materiallar narxlari, mashina-mexanizimlarni ishlash qiymati va ishlar xajmini maqullanishi sharti bilan «Mavjud binolarni buzib o’rniga 12 qavatli, 1-2 qavatlari savdo va maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalari yuqori

qavatlari turar-joy" bino va inshootlari qurilishi» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun ob’ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Xudayberdiyev Shokir Abdiraxmanovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Axmedov Asadbek Otabek O‘g‘li, Mirzayev Nodirbek Xalilovich, Abduraxmanov Muzaffar Yulchiyevich, Xatamov Nurbek Choriyevich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Akmalov Sanjar Sherzod O‘g‘li, Adjigafarova Remziye Ablyayevna, Shukurov Rustam Sunnatovich